

5- SINF O'QUVCHILARINING XORIJIY TILNI O'RGANISH JARAYONIDAGI PSIXOEMOTSIONAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining xorijiy tilni o'rganish jarayonidagi psixo-emotsional xususiyatlari to'g'risida fikr-mulohaza yuritilgan, xorijiy tilni o'rganishning psixologik jihati ko'rib chiqilgan. Xorijiy tilini o'zlashtirish jarayonida o'rganish muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi muhim jihatlardan biri inson psixikasi ekanligi asoslab berilgan, chet tilini o'zlashtirishda psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etishning ba'zi samarali usullarini aniqlangan va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: inson psixikasi, psixo-emotsional holatlar, xorijiy til, motivatsiya, diqqat, xotira, iroda kuchi.

ПСИХОЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ УЧАЩИХСЯ ПЯТЫХ КЛАССОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье рассматриваются психоэмоциональные особенности школьников в процессе изучения иностранного языка, рассматривается психологический аспект изучения иностранного языка. Обосновано, что одним из важных аспектов, влияющих на успех обучения в процессе овладения иностранным языком, является психика человека, определены некоторые эффективные способы преодоления психологических трудностей в освоении иностранного языка и даны рекомендации.

Ключевые слова: психика человека, психоэмоциональные состояния, иностранный язык, мотивация, внимание, память, сила воли.

PSYCHOEMOTIONAL CHARACTERISTICS OF 5TH GRADE STUDENTS IN THE PROCESS OF LEARNING A FOREIGN LANGUAGE

Annotation. This article discusses the psychoemotional characteristics of students in the process of learning a foreign language, and examines the psychological aspect of learning a foreign language. It is argued that the human psyche is an important factor in the success of learning a foreign language, and some effective ways of overcoming psychological difficulties in learning a foreign language are identified and recommendations are provided.

Keywords: psychoemotional states, foreign language, motivation, attention, memory, willpower.

Kirish. Ma'lumki, inson shaxsning psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir. Zamonaviy pedagog uchun o'quvchilarning turli yosh davrlaridagi psixik taraqqiyoti qonuniyatlarini o'zlashtirib, ularga individual yondasha bilish, bola psixikasi taraqqiyotida turli noxush holatlar oldini ola bilish, otalarning hamda o'z hamkasblari va bolalar bilan madaniyatli muomalada bo'lish, psixologik nazokatni to'g'ri shakllantirish muammolarini ijobiy hal etish muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ham "Oldimizga yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi", deya jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarning pedagogik-psixologik

272 mohiyatini bo'lg'usi mutaxassislar tomonidan o'zlashtirilishiga ko'mak beruvchi ilmiy manbalarning ahamiyatini yana bir marotaba ta'kidlab o'tdi.

Ma'lum yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta'lim va tarbiya berib bo'lmaydi. Bolaning har bir yoshi o'z qiyinchiliklariga ega bo'ladi va o'ziga nisbatan maxsus munosabatda bo'lishni talab qiladi. Ta'lim va tarbiya jarayonida individual munosabatda bo'lishning sharti o'quvchining psixologik xususiyatlarini har tomonlama va chuqur bilishdan iboratdir. Yuqorida ko'rsatilgan qonuniyatlarni hammasini bilish o'z-o'zicha hali ta'lim-tarbiya ishlarida muvaffaqiyatning garovi bo'la olmaydi. Lekin juda ko'p xatolarning oldini olish imkonini beradi, chunki bu qonuniyatlarda o'qituvchini ko'r-ko'rona harakat qilish zaruratidan qutqaradi.

Psixologik adabiyotlardan ma'lumki, o'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. "Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas" - ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'qish o'smirlar hayotida katta o'rinni egallaydi. Maktab ta'limi o'smir bilish jarayonlarini rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o'zgarishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o'smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari, qiziqishlarining ortishi, o'qituvchining o'quv materialini tushuntira olish mahoratiga bog'liq. O'qish faoliyati asosida o'smirning o'z-o'zini anglash darajasi kengayadi, boshqa odamlar, atrof olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. Bilim o'rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan o'quv fanlariga nisbatan qat'iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning yangi motivlari yuzaga keladi. Aynan o'smirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Mana shularning hammasi xilma-xil intellektual va axloqiy hislarni o'sishi uchun manba bo'lib qoladi. Shu boisdan mana shu davrda ularning til o'rganish qobiliyatiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Ma'lumki, emotsiya – shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Kishilar idrok qilayotgan, ko'rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan, o'ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo'lmaydilar. Emotsiyani o'rgangan barcha olimlar, ularning motivatsiyaga undovchi kuch ekanligini, ularni ehtiyojlar va ularning qondirilishi bilan bejizga bog'lashmaydi (Z. Freyd, V.K. Vilyupas, B.I. Dodonov, K. Izard va boshqalar).

S.L. Rubinshteynning yozishicha, shaxsning xarakteri va aqliy qobiliyati, qiziqishlari va boshqa odamlarga munosabatlarining barcha o'ziga xos xususiyatlari hissiyotlar va sezgilarning kamalak rangida namoyon bo'ladi va aks etadi. Emotsionallik tug'ma bo'ladi, lekin affektlar, sezgilar hayot jarayonida rivojlanadi, bu esa insonning shaxs sifatida rivojlanishini bildiradi. Bunday rivojlanish inson emotsional sohasiga yangi ob'yektlarni kiritish, shaxs sezgilarini ongli irodaviy boshqarish va nazorat qilish darajasining oshishi axloqiy boshqarishga yuksak axloqiy qadriyatlar (vijdon, mas'uliyatlilik, nomus va boshqalar) ning asta-sekin kiritilishi bilan bog'liq. Sir emaski, til o'rganish aqliy faoliyat bo'lganligi tufayli uning psixologik asoslari mavjud. Aqliy faoliyat ruhshunoslikda ilmiy jihatdan tekshiriladi. Shu munosabat bilan ingliz tili o'qitishning psixologik tamoyillarini tadqiq etish ehtiyoji tug'iladi. Ilmiy manbalarda ingliz tili o'qitishning ikkita psixologik tamoyillari ishlab chiqilgan. Psixologik tamoyillar: "verbalizatsiya" (o'zga til amalda faqat og'zaki nutq orqali o'rganiladi) va "korrelatsiya" (ingliz tili materialining muayyan chegarasi aniqlanadi, birinchi galda nutq malakalarini hosil qilish uchun mo'ljallangan til birliklari majmuyi shakllanadi) nomlarini olgan. Ingliz tili o'qitishning tilshunoslik asoslari birmuncha tadqiq etilganligiga qaramay, metodika fanida ingliz tili o'qitishning lingvistik tamoyillari masalasiga kam e'tibor qaratilgan. Metodika tamoyillari mohiyatini yoritishda psixologik va lingvistik qonun-qoidalarga suyanib ish ko'rildi va quyidagi psixolingvistik tamoyillar umumlashtirildi: 1. O'quvchilarning ingliz tili o'rganish, o'zlashtirishga motivatsiyasi (ichki turtkisi) ni oshirish. 2. Mashg'ulotlarda o'quvchilarning yoshiga mos jismoniy harakatlarini

rag'batlantirish. 3.O'quvchilarni ona tili va o'rganilayotgan chet tilning o'xshash jihatlaridan xabardor etish. 4. O'quvchilarning vositachi til (metatil) tajribalarini rivojlantirish. 5.O'quvchilarni ona tili va o'rganilayotgan chet tilning aloqadorligidan foydalanishga o'rgatish. 6.O'quvchilarni o'rganilayotgan ingliz tili tuzilmasi bilan umumiy tanishtirish. 7.Individual yondashish, ya'ni o'quvchilarning xos xususiyatlari (har qaysi o'quvchining tabiati, nimalarga qodirligi, qiziqishi, kim bilan do'stlashishi, nimalarga salbiy munosabatda bo'lishi) ni inobatga olib psixo-pedagogik tadbirlar olib borish. Xorijiy til o'qituvchilari ingliz tilini o'rgatishda psixologik mashqarni to'g'ri qo'llay olishlari lozim. Xorijiy til o'quvchilarning tilni o'zlashtirishdagi hadiksirashi, chalg'ishi va charchashini yo'qotishga hamda salbiy o'zgarishlarning oldini olishga qaratilgan psixogimnastika mashg'ulotlarini ham o'z vaqtida qo'llay olishi o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Dars jarayonida bolaning bilish psixik jarayonlari – diqqati, fikrlashi, idroki, tasavvuri, xotirasi va ta'lim olishga qiziqishlari o'yinlar yordamida rivojlantiriladi.

Shuningdek, chet tilini o'rganishda yosh muhim rol o'ynaydi va yoshga qarab tilni o'zlashtirish qobiliyati farqlanadi. Chet tilini o'qitishda yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim. Bolalar uchun chet tili darslarida o'yin va qo'shiqlardan foydalanish, o'smirlar uchun esa muloqot va ijtimoiy o'zaro ta'sirga e'tibor qaratish lozim. Kattalar esa chet tilini o'rganishda grammatik qoidalar va kognitiv yondashuvga urg'u berishlari mumkin.

Ta'kidlash joizki, emotsional holatlar inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, ular bizning xulq-atvorimiz, ijtimoiy munosabatlarimiz va umumiy farovonligimizni shakllantiradi. Emotsiyalarni boshqarish, ayniqsa emotsional intellektni rivojlantirish, insonlarning jamiyatdagi faoliyatlarini va shaxsiy hayotini yaxshilashga yordam beradi.

Shu o'rinda ba'zi masalalarga oydinlik kiritishni lozim topdik: Til o'rganish psixikaga qanday ta'sir qiladi? So'nggi tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, tillarni o'rganish miyaning eng murakkab, "ijro etuvchi" funktsiyalari uchun javob beradigan sohalarini rivojlantiradi. Bularga, masalan, turli vazifalarni almashtirish, rejalashtirish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish, axborotni filtrlash kiradi.

Emotsional ruhiy holatlar nima? Psixologiyada aniqlangan asosiy hissiy holatlar quyidagilardir: 1) Quvonch (qoniqish, zavqlanish), 2) G'amginlik (apatiya, qayg'u, tushkunlik), 3) G'azab (tajovuz, g'azab), 4) Qo'rquv (tashvish, cho'chish), 5) Ajablanish (qiziqish), 6) Nafrat (nafrat, jirkanish).

Qanday turdagi hissiyotlar mavjud? Tajribaning tabiatiga qarab, his-tuyg'ular ijobiy (quvonch, shodlik, hayrat), salbiy (qayg'u, g'azab, umidsizlik) yoki neytral (qiziqish, qiziquvchanlik) bo'lishi mumkin.

Tuyg'u va hissiyot o'rtasidagi farq nimada? Tuyg'u yanada yorqinroq va shiddatli tarzda ifodalanadi, u quvonch, g'azab, qo'rquv yoki qayg'u kabi ifodalanishi mumkin. Tuyg'u yanada nozik va yashirin bo'lishi mumkin, masalan, sevgi, minnatdorchilik yoki pushaymonlik. Tuyg'u hissiyotdan kelib chiqadi, aksincha emas. U uzoqroq va barqarorroq, murakkabroq va xilma-xildir.

Chet tilini o'rganish qanday his-tuyg'ularni uyg'otadi? Chet tilini o'rganish boy emotsional tajribaga ega bo'lgan murakkab kognitiv faoliyat bo'lib, uning davomida chet tilini o'rganuvchilar tashvish, qo'rquv, stress, uyat, charchash, g'azab va zerikish kabi turli xil salbiy his-tuyg'ularni boshdan kechiradilar. (<https://www.frontiersin.org>)

S.F. Shatilov chet tilini o'qitish mazmunining tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni belgilaydi: 1) til material; 2) til hodisalarini shakllantirish va ulardan foydalanish qoidalari; 3) nutq faoliyatining har xil turlarini egallashni ta'minlaydigan ko'nikma va malakalar; 4) matnlar va tematik fokus va 5) hissiy-estetik jihat. Ta'limda hissiy jihatni amalga oshirishning ahamiyati shundaki, busiz chet tillarini o'qitishning strategik maqsadiga erishish mumkin emas – o'quvchilarda ko'p madaniyatli til shaxsining xususiyatlarini shakllantirish lozimki, uning tuzilishi milliy va madaniy o'ziga xos xususiyatlarga ega keng hissiy sohani o'z ichiga oladi.

Chet tillarni o'qitish mazmunini loyihalash masalalari ustida ishlagan va hozir ham ishlayotgan ko'plab tadqiqotchilarning ishlarida emotsional-baho jihati, qoida tariqasida, oddiygina e'tibordan chetda qolib ketadi yoki uning mazmunini oshkor etmasdan tilga olinadi. Ta'kidlash joiz, chet tilidagi muloqotni o'rgatish jarayonida chet tili madaniyatining emotsional jihatini chet tillarini o'qitish mazmuniga emotsional tushunchalarni kiritish, har qanday

emotsional bayonning substantiv jihatini tashkil etuvchi ham umuminsoniy, ham milliy-o'ziga xos ma'nolarning butun majmuasini birlashtirish orqali ta'minlash mumkin.

Tadqiqot natijalari. Kuzatishlar ko'rsatadiki, inson psixikasining quyidagi xususiyatlari o'quv jarayoniga ta'sir qiladi: o'rganish qobiliyati bilimlarni egallash tizimini tavsiflaydi; ijodkorlik (umumiy ijodiy qobiliyat); temperament; e'tibor; fikrlash; idrok etish; xotira (bilimning saqlanishi asosan uzoq muddatli xotira bilan bog'liq). Bolaga qiyinchiliklarni yengishda yordam berish uchun uning xulq-atvorini shunchaki o'rgatish emas, balki uning shaxsini rivojlantirish, avvalo, mas'uliyat hissini kuchaytirish kerak. Buning uchun mas'uliyatning psixologik mohiyatini aniqlash, uning turlarini tavsiflash, yoshga qarab o'zgarishini va shaxsning boshqa xususiyatlari hamda qiyinchiliklarni yengib o'tish strategiyalari bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash lozim. Emotsional intellektning asosiy komponentlari quyidagilar: 1. Hissiy anglash: O'z hissiyotlarini va boshqalar hissiyotlarini tushunish. 2. Hissiy boshqarish: Hissiyotlarni boshqarish va ifodalash qobiliyati. 3. Motivatsiya: O'z maqsadlariga erishish uchun ichki motivatsiyani rivojlantirish. 4. Empatiya: Boshqalar hissiyotlariga nisbatan sezgirlik va ularni tushunish. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, bolalar bilan his-tuyg'ular haqida suhbatlashish hissiy kompetentsiyaning asosiy ko'rsatkichidir, ya'ni bu bilan ular o'zlarining his-tuyg'ularini ifoda etish va nazorat qilishni va boshqalarning his-tuyg'ularini tan olishni o'rganishadi.

Emotsional intellekt (EI yoki EQ — Emotional Quotient) bu — o'z his-tuyg'ularini va boshqalar hissiyotlarini tushunish, nazorat qilish, va samarali boshqarish qobiliyatidir. EQni oshirish shaxsiy hayotda ham, ish faoliyatida ham juda foydali. Quyida emotsional intellektni oshirish usullaridan ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

1. O'zingizni anglash (self-awareness)

Kundalik yuritish: Har kuni o'z his-tuyg'ularingiz haqida yozing.

O'z-o'zini tahlil qilish: Qanday vaziyatlarda qanday his qilganingizni o'ylab ko'ring — nima sabab bo'ldi? Siz qanday javob qaytardingiz? Fikr-mulohazalarni qabul qilish: Boshqalarning siz haqingizdagi fikrlarini eshitishga ochiq bo'ling.

2. O'zini boshqarish (self-regulation)

Nafas olish mashqlari yoki meditatsiya orqali hissiyotlaringizni boshqarishni o'rganing. Stressga bardoshlilik ustida ishlang — og'ir vaziyatlarda xotirjam qolishga harakat qiling. Tezda javob qaytarmasdan, o'ylab javob bering.

3. Motivatsiya (self-motivation)

Ichki motivatsiyani aniqlang — nimaga erishmoqchisiz, nima sizni ilhomlantiradi? Uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun kichik qadamlar belgilang.

4. Empatiya (others' emotions understanding)

Boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishga harakat qiling — ularning o'rniga o'zingizni qo'ying. Gapni bo'lmasdan, diqqat bilan tinglashga odatlaning.

5. Ijtimoiy ko'nikmalar (social skills)

Ochiq va samimiy muloqot qilishni mashq qiling. Qarama-qarshiliklarni konstruktiv hal qilish yo'llarini o'rganing. Jamoadagi o'z rolini tushunish va boshqalar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatish muhim.

Maktab o'quvchilarining ingliz tili (yoki boshqa xorijiy til)ni o'rganish jarayonidagi psixo-emotsional xususiyatlari ularning tilni egallash darajasi, motivatsiyasi va muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Quyida bu xususiyatlarning asosiy jihatlari keltirilgan:

1. Yoshga bog'liq xususiyatlar.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ko'proq emotsional bo'lishadi, tilni o'yin orqali, taqlid qilish asosida o'rganadilar.

O'rta va yuqori sinflarda esa o'quvchilar o'zini baholay boshlaydi, o'zaro solishtirish kuchayadi, bu esa psixologik bosim keltirib chiqarishi mumkin.

2. Motivatsiya.

Til o'rganishdagi motivatsiya ichki (shaxsiy qiziqish) yoki tashqi (imtiyoz, baho, ota-onaning talabi) bo'lishi mumkin. Yuqori motivatsiyali o'quvchilar ko'proq mustaqil ishlashga va til muhitida faol bo'lishga intiladilar.

3. O'ziga ishonch va til to'siqlari.

Ba'zi o'quvchilar begona tilni gapirishdan uyaladilar (xatolik qilishdan qo'rqishadi). Bunday holatda psixologik qo'llab-quvvatlash va ishonchli muhit yaratish muhim.

4. Emotsional holat.

Stress, qo'rquv yoki zerikish til o'rganish jarayonini sekinlashtiradi.

O'yinlar, interaktiv metodlar va rag'batlantirish orqali ijobiy emotsional fon yaratish samarali bo'ladi.

5. Individual xususiyatlar.

Har bir bola o'ziga xos: kimdir eshitish orqali, boshqasi vizual yoki kinestetik usullar orqali yaxshi o'rganadi. Shuning uchun diferensial yondashuv muhim: darslar turli usullar bilan tashkil etilishi kerak.

Bugungi globallashtirish davrida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'rganish maktab ta'limining ajralmas qismiga aylangan. Biroq o'quvchilarning ingliz tilini egallash jarayonida faqat lingvistik yondashuv emas, balki psixologik va emotsional omillar ham katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning yoshi, motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi, hissiy holati va individual xususiyatlari ularning til o'rganishdagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardandir.

1. Yosh xususiyatlari va emotsional rivojlanish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari asosan hissiyotlarga boy bo'lib, o'yin orqali til o'rganishga moyil bo'lishadi. Ular uchun yangi tilni eshitish, taqlid qilish va ko'p takrorlash orqali o'rganish samarali hisoblanadi. O'rta va yuqori sinf o'quvchilarida esa mantiqiy fikrlash kuchayadi, lekin shu bilan birga o'zini boshqalar bilan solishtirish, xatodan qo'rqish, o'zini yomon his qilish kabi hissiy holatlar ham paydo bo'ladi.

2. Motivatsiya va unga ta'sir etuvchi omillar.

Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya asosiy harakatlantiruvchi kuchdir. Motivatsiya ichki (shaxsiy qiziqish, tilni bilishga bo'lgan istak) va tashqi (baho olish, ota-onaning bosimi, kelajak kasbiga tayyorgarlik) bo'lishi mumkin. O'quvchining qiziqishlari, ustozning darsdagi faoliyati, o'rgatish metodlari ham motivatsiyani kuchaytiradi yoki susaytirishi mumkin.

3. O'ziga ishonch va psixologik to'siqlar.

Ko'pgina o'quvchilar, ayniqsa yuqori sinflarda, ingliz tilida gapirishda o'zlarini noqulay his qilishadi. Bunga grammatik xatolar qilishdan qo'rqish, boshqalarning kulishidan xavotirlanish sabab bo'ladi. Bunday holatda o'qituvchining psixologik yondashuvi — xatoga bag'rikenglik bilan qarash, qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish juda muhim hisoblanadi.

4. Emotsional fon va dars jarayoni.

Ijobiy emotsional muhit til o'rganish samaradorligini oshiradi. Qiziqarli mashg'ulotlar, o'yinli metodlar, jamoaviy ishlar, baholashda rag'batlantirish usullari o'quvchilarning tilga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Salbiy emotsiyalar esa o'quvchining ishtirokini kamaytiradi, passivlashtiradi.

5. Individual yondashuv zarurati.

Har bir o'quvchining o'rganish uslubi har xil: kimdir eshitib yaxshi o'rganadi, boshqasi yozib, qayta ko'rib eslab qoladi. Shuning uchun darslarda vizual, eshituv, kinestetik metodlarni uyg'unlashtirish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish samaradorlikni oshiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xorijiy tilni o'qitishda psixo-emotsional yondashuv muhim o'rin tutadi. O'qituvchi nafaqat til bilimini beruvchi, balki o'quvchilarning psixologik holatini tushunuvchi, ularga ishonch uyg'otuvchi, qiziqitiruvchi shaxs bo'lishi lozim. Shundagina maktab o'quvchilari ingliz tilini o'rganishda yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

XULOSALAR. Hozirgi kunda chet tillarini o'rganish barcha uchun zaruriy jarayondir. Insonlar boshqa xalqlarning madaniyati va urf-odatlarini tushunishlari uchun avvalo, o'sha xalqning tilini bilishlari kerak. Chet tilini o'rganish orqali biz boshqa xalqlar bilan, ularning mentaliteti, faoliyati, urf-odatlari, mamlakatning diqqatga sazovor joylari bilan tanishishimiz mumkin. Xalqimizda shunday maqollar bor: "Til bigan-el biladi", "Ko'p tillarni biladigan odam dunyo bo'ylab sayohat qiladi". Bundan tashqari, chet tillarini o'rganish insonning dunyoqarashini kengaytirishga, boyitishga, xotiraning turli xil turlarini yaxshilashga, diqqatning barqarorligini oshirish, fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Til o'rganishda motivatsiya asosiy omil hisoblanadi. Har qanday faoliyatda bo'lgani kabi, inson biror narsani qilishni xohlamasa yoki uni kuch bilan qilsa, u yuqori natijaga erisha olmaydi. Ingliz tilini o'rganayotgan odamlar uchun mehnat bozoridagi talab muhim motivatsion omil hisoblanadi. Demak, ma'lum yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta'lim va tarbiya berib bo'lmaydi. Bolaning har bir yoshi o'z qiyinchiliklariga ega bo'ladi va o'ziga nisbatan maxsus munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т., 2017. – Б. 45.
2. PQ-5117, 19.05.2021 “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. Алешинская Е.В. К вопросу о психологических аспектах изучения английского языка // Litera. - 2014. - № 4. - С.119-139. DOI: 10.7256/2409-8698.2014.4.14990. URL: http://e-notabene.ru/fil/article_14990.html (дата обращения 17.10.2017)
4. Беляев Б.В. Очерки по психологии обучения иностранным языкам. - 2-е изд. - М.: Просвещение, 1965. - 229 с. с.156.
5. Буранова, Л. У. (2023). FORMING THE SKILLS OF MONOLOGUE AND DIALOGUE SPEECH IN FOREIGN LANGUAGE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 6(3).
6. Ю. Абдуллаев, А. Бушуй- Иностранные языки в современном мире. Фан. Ташкент академия наук Республики Узбекистан. 2000
7. М.М.Артикова-“Интенсивное обучению на иностранных языках Интернаука” 2007 №9-2 с 9-117.
8. Usmonova Sh.(2014). Psixolingvistika. Toshkent: O‘zbekiston.
9. Тўйчиева, С. М. (2014). Бошланғич синф ўқувчиларига хорижий тилни ўргатишнинг педагогик ва психологик жиҳатлари. Современное образование (Узбекистан), (3), 28-31.
10. .М.Г.Давлетшин ва бошқалар “Ёш даврлар ва педагогик психология” Т.ТДПУ. 2009.
11. Рогова Г.В., Рабинович Ф.М., Сахарова Т.Е. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. М. : Просвещение, 1991. 289 с.
12. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. М. : Академия, 2004. 336 с.
13. Хошимов, Ф., Комилова, Н. (2020). ТУРЛИ ТИЗИМЛИ ТИЛЛАРДА “ГЕНДЕР” КОНЦЕПТИ ВА УНИ ВОҚЕЛАНТИРУВЧИ ВОСИТАЛАР МАЙДОНИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАДҚИҚИ. Scientific journal of the Fergana State University, (3), 143-147.
14. Tajibayev G.Sh. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish. – Т.: Namangan, 2019. – 13-14 b.
15. Медведева, Л.Г. Влияние эмоционального и мотивационного компонентов на процесс обучения иностранному языку. <http://sun.tsu.ru/mminfo>
16. Taylor D. Emotional factors and continuing professional development. Advances in Psychiatric Treatment (2001) 7:9-15. The Royal College of Psychiatrists.
17. Шатилов С.Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе. М. : Просвещение, 1986. 223 с.
18. Познавательные процессы личности и методика их развития. Под редакцией Е.Н.Степанова - Псков, 1994. - 153 с. с. 28.